O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI VOBKENT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko’chasi 55-uy, tel: (65) 33-21-550, vobkent.t@exat.uz

2024 - yil 6 - iyun 262-2-33-Q/24 Vobkent tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi № 119 sonli “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarni harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq Vobkent tumanidagi korxona, tashkilot, muassasalar, ta’lim muassasalari va o‘zini o‘zi boshqarish organlarida harbiy hisobni olib borish va tashkillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi № 119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarni harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq Vobkent tumanidagi korxona, tashkilot, muassasalar, ta’lim muassasalari va o‘zini o‘zi boshqarish organlarida harbiy hisobni olib borish va ushbu toifani iqtisodiyot tarmoqlariga bron qilish ishlarini tekshirish ustidan nazorat qilish va uni sifatini yaxshilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi № 119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarni harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq tuman mudofaa ishlari bo‘limi, korxona, tashkilot, va ta'lim muassasalarda boshqaruv va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarning umumiy va maxsus ro‘yxati joylarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilot, korxona, muassasa shuningdek ta’lim muassasalari rahbarlari tomonidan ularning yashash, ishlash joylari bo‘yicha amalga oshirilsin.

3.Harbiy ro‘yxatga olish tadbirlarini bajarish jarayonida korxona, tashkilot, muassasa jumladan ta’lim muassasa ma’muriyatlari quyidagi vazifalarni bajarishi majburligi belgilansin:

- Mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limi tomonidan harbiy hisobni tekshiruv jarayonida ushbu qarorning 1-ilovasidagi jadval asosida ko‘rsatilgan muddatlarda harbiy hisobga oid barcha hujjatlar taqdim etilsin:

-O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi va Davlat Statistika Qo’mitasi tomonidan

belgilangan qoida va shakllar bo‘yicha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar ro‘yxatining to‘la-to‘kisligi va sifatliligi ta’minlansin;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan bronlash bo‘yicha ro‘yxatga muvofiq iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun rahbarlar, muhandis texnik xodimlar, malakali ishchilardan iborat harbiy xizmatga majburlarni o’z vaqtida bronlash rasmiylashtirilsin;

- Tuman mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limida harbiyga majburlarni harbiy hisobini sifatli olib borish maqsadida korxona, tashkilot hamda ta’lim muassasalaridan mudofaa bo‘limida zaruriyat tug‘ilgan vaqtda yetarli malakaga ega bo‘lgan ishchi xodimlar (texnik xodimlar) ajratilsin.

4. Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari boshlang‘ich harbiy ro‘yxat masalalari bo‘yicha tadbirlarni bajarish jarayonida quyidagilarga majburligi belgilansin:

-xizmat ko‘rsatayotgan hududda yashovchi barcha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar ro‘yxatining to‘la qamrab olinganligi va sifatliligi ta’minlansin;

-harbiy xizmatga majburlar, safarbarlik chaqiruvi rezervi va muqobil xizmat xizmatchilari hamda chaqiriluvchilarning hisob varaqalarini zaxiradagi ofitserlar guvohnomasi, rezervdagi va zaxiradagi harbiy xizmatga majburlar, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchilarining harbiy guvohnomalari, chaqiriluvchilarning qayd qilinganligi guvohnomalari bilan solishtirib, T-2 shakldagi shaxsiy varaqalari, yakka tartibdagi hisob varaqalarini har yili kamida bir marta tuman mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limiga taqqoslash uchun taqdim etilsin;

- harbiy ro‘yxatga qo‘yilgan va ro‘yxatdan chiqarilgan barcha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar haqida o‘n kun muddat ichida tuman mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limiga yozma ma’lumot berilsin;

- harbiy xizmatga majburlarning yakka tartibdagi hisob varaqalari va chaqiriluvchilar ro‘yxatiga ma’lumoti, ish joyi, lavozimi, oilaviy ahvoli va yashash joyi bo‘yicha o‘zgarishlarni kiritib borish hamda har oyda mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘iga ma’lumot berilsin.

5.Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, korxona, tashkilot, muassasalarda kimning tasarrufida ekanligi va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni harbiy ro‘yxatini tashkil qilish hamda uni nazorat qilish tuman mudofaa ishlari tomonidan amalga oshirilsin.

6.Tumandagi korxona, tashkilot, muassasalarga hamda fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yil 4-martda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Nizom talablarini sifatli va samarali bajarish, harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni to‘la qamrab olgan holda harbiy ro‘yxatga olishni to‘la to‘kis amalga oshirish yuklatilsin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Husenov va tuman mudofaa ishlari bo’limi boshlig‘i Z.Djabarov zammasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **F.Umarov**

Vobkent tuman hokimining
2024-yil 6-iyundagi
262-2-33-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Vobkent tumani hududida joylashgan tashkilot, muassasa, korxona va ta’lim muassasalarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobotini yuritish va ushbu toifani iqtisodiyot tarmoqlariga bron qilish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini 2024-2025 yillar davomida tekshirish

JADVALI

T.r.	Tashkilot muassasa, korxona va ta’lim muassasasining nomi	Tekshiruv o‘tkazish sanasi
1	Vobkent tuman tibbiyot birlashmasi	13.05.2024
2	Vobkent tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	04.06.2024
3	Buxoro viloyati reabilitatsiya markazi	10.07.2024
4	Vobkent tuman xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil yetish bo‘limi	07.08.2024
5	Vobkent tuman «XARXUR-DUOBA» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	19.09. 2024
6	Vobkent tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi	24.10. 2024
7	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Vobkent sanoat va transport texnikumi	11.11.2024

Vobkent tuman hokimining
2024-yil 6-iyundagi
262-2-33-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Vobkent tumani hududidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini 2024-2025-yillar davomida kompleks ravishda tekshirish

JADVALI

T.r.	O‘zini o‘zi boshqarish organi nomi	Tekshiruv o‘tkazish sanasi
1.	Kumushkent MFY.	20.05.2024
2.	Xo’jarabot MFY.	22.05.2024
3.	Saraosiyo MFY.	24.05.2024
4.	Rozmoz MFY.	27.05.2024
5.	Bozorjoyi MFY.	10.06.2024
6.	Anjirbog‘ MFY.	12.06.2024
7.	Ko‘lodina MFY.	14.06.2024
8.	Ko‘lxatib MFY.	24.06.2024
9.	Teraklik MFY.	26.06.2024
10.	G‘aribshox MFY.	28.06.2024
11.	Shoxnigor MFY.	15.07.2024
12.	Shirin MFY.	17.07.2024
13.	Chorbog‘kent MFY.	19.07.2024
14.	Qo‘qin MFY.	29.07.2024
15.	Guliston MFY.	30.07.2024
16.	Arabxona MFY.	31.07.2024
17.	Diyor MFY.	12.08.2024
18.	Xalach MFY.	14.08.2024
19.	Beshrabot MFY.	09.09.2024
20.	Mo‘minobod MFY.	11.09.2024
21.	Xajuvon MFY.	13.09.2024
22.	Kosari MFY.	16.09.2024
23.	Xayrabot MFY.	07.10.2024
24.	Shanba MFY.	09.10.2024
25.	O‘zbakon MFY.	11.10.2024
26.	Changaron MFY.	23.10.2024
27.	Mirvoshi MFY.	25.10.2024
28.	Cho‘rikalon MFY.	28.10.2024
29.	So‘fidehqon MFY.	30.10.2024
30.	Xaryrxush MFY.	15.11.2024
31.	Nayman MFY.	18.11.2024
32.	Qatag‘an MFY.	20.11.2024
33.	Panob MFY.	22.11.2024
34.	Latifsobungar MFY.	11.12.2024
35.	Niyozxo'ja MFY.	13.12.2024
36.	Shakarkent MFY.	16.12.2024